



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

8(16)

2024





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№8(16) 2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -**
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya fanlari bo‘yicha
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



Jurnal haqida
Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommabiy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале *«Педагогическая акмеология»* являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal *"Pedagogical akmeology"* are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: "Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kotib:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O'zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupdjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Yo'ldosh G'afurovich, yuridik fanlari nomzodi, dotsent

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhammadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rajabov To'xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)

Abdullayev Mehridin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Toshtemirov Oybek Abidovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Axadov Ma'murjon Sharipovich, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, Siyosatshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Jo'rayev Akmal Razzoqovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Shadiyeva Nigora Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Hayitov Hamza Axmadovich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX..... 7

Orziyev Mahmud Zayniyevich, Islomova Sarvinoz Jasur qizi. Mo'g'ullar hukumronligi so'nggida ayrim turk-mo'g'ul qabilalarining Movarounnahrda o'rtnashishi xususida	7
Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li. Sharqshunos olim D.N. Logofet talqinida Buxoro amirligida maorif va diniy siyosat masalalari	13
J.N.Xalilov. Buxoro muzeyi zargarlik va misgarlik to'plami: sehrli qo'llar mo'jizasi	18
Beshimov Maqsud Komilovich. Buxorodagi ilk jadid maktabi	28
Koraboyev Murodjon Oldashovich. XIX asr oxirida Turkiston o'lkasi an'anaviy sud tizimini o'zgartirishi	31

ANIQ FANLAR..... 34

Axmedov Axad Axrorovich. Bo'lajak fizika o'qituvchisini tayyorlashning metodologik asoslari	34
Qurbonov G'ulomjon G'afurovich, To'yboyeva Zarina Avez qizi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida logarifm tushunchasining nazariy asoslari	38
Sottarov Abduvali Umirqulovich. Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi modeli.....	43

FILOLOGIYA 46

Шокирова Мархабо Шарифовна. Сходства в использовании стилистических средств в формальном стиле узбекского и английского языков.....	46
Qo'chqarova Shakarjon Azimboy qizi. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda motivatsion yondashuv.....	50
Axmedova Shahnoza Fayzullo qizi. Folklorizm hodisasi va uning o'zbek bolalar adabiyotida ta'siri..	55

PEDAGOGIKA 61

Rustambek Avezmurodovich Qo'ldoshev, Asror Abdulloyevich Kasimov. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi tahlili..	61
Ibrohimova Zebiniso Nodir qizi. Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at va uning maqsadi va vazifalari	69
Nuriddin Olimjonovich Kirgizov. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyasini takomillashtirish yo'llari.....	73
Davronov Nurzod Ismoilovich. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida salomatlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	77
Dilfuza Islomovna Mamurova. Oliy ta'limda chizmachilik fanini o'qitish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish.....	80
Turdiyeva Mohira Juraqulovna. Integratsiya - ta'limning muhim tamoyili sifatida	87
Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich. Rasmiy va informal ta'limning qiyosiy tahlili: xususiyatlari, afzalliklari va ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi bir-birini to'ldiruvchi roli	90
Abdullayeva Feruza Nurillayevna. Sinergetik yondashuv asosida boshlang'ich sinflarda badiiy asarlarni o'rgatishda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish	95
Xolov Olimjon Chorshamiyevich. Sharq mutafakkirlarining qarashlarida milliy tarbiya	98
Husenova Aziza Sharipovna, Sobirova Boljon Usmon qizi. Ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar va urf-odat an'analarini shakllantirishning ahamiyati	102
Шадиева Дилрабо Курбановна. Использование педагогических технологий при исследовании морфологических ошибок в средствах массовой информации	106
To'raeva Gulchiroy Sheralievna. Bo'lajak muhandislarning texnologik kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	111
Ergasheva Tuyg'unoy Shavkatjon qizi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida o'quv lug'atlaridan foydalanish dolzarb pedagogik muammo sifatida	117
E.R.Voxidov. O'quvchi bilimni baholash ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida	120

Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li
Buxoro davlat universiteti
arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası
dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD)
Email: megaahmadov_1994@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0005-6853-3051>

SHARQSHUNOS OLIM D.N. LOGOFET TALQINIDA BUXORO AMIRLIGIDA MAORIF VA DINIY SIYOSAT MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan rus harbiysi, sayyoh, sharqshunos olim D.N. Logofetning asarlari orqali Buxoro amirligidagi maorif va diniy siyosat masalalarini yoritganligi, amirlikdagi ta'lim tizimi kabi jihatlar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, Buxoro amirligida maorif asosan diniy bilimlar berishga mo'ljallangan bo'lib, dunyoviy bilimlar va she'riyat keng miqyosida o'rgatilmaslighi kabi masalalar D.N. Logofet asarlari asosida o'rganilib, tarixiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: D.N. Logofet, ta'lim-tarbiya, ta'lim muassasasi, maorif, maktab, madrasa, kitob, Qur'on, shariat, tariqat, arab tili, masjid, o'qituvchi, diniy siyosat, islom.

Ахмадов Ахмаджон Асрор ўғли
Бухарский государственный университет
«Кафедры археологии и истории Бухары», доцент (PhD)
Email: megaahmadov_1994@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0005-6853-3051>

УЧЕНЫЙ-ВОСТОК Д.Н. ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ И РЕЛИГИОЗНОЙ ПОЛИТИКИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ЛОГОФЕТОВОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация: В этой статье русский солдат, турист, востоковед Д.Н., путешествовавший по Средней Азии. Через труды Логофета были освещены вопросы образования и религиозной политики в Бухарском эмирате, а также научно проанализированы такие аспекты, как система образования в эмирате. Также образование в Бухарском эмирате в основном направлено на предоставление религиозных знаний, а такие вопросы, как светские знания и поэзия, не преподаются массово, - отмечает Д.Н. Логофет были изучены и исторически проанализированы на основе его произведений.

Ключевые слова: Д.Н. Логофет, образование, учебное заведение, образование, школа, медресе, книга, Коран, шариат, секта, арабский язык, мечеть, учитель, религиозная политика, ислам.

Akhmadov Akhmadjon
Bukhara State University
Associate Professor of the Department of
Archaeology and History of Bukhara, (PhD)
Email: megaahmadov_1994@mail.ru
<https://orcid.org/0009-0005-6853-3051>

ISSUES OF EDUCATION AND RELIGIOUS POLICY IN THE BUKHARA EMIRATE UNDER THE GUIDANCE OF ORIENTALIST D.N. LOGOFET

Annotation: In this article, the Russian military, tourist, Orientalist scientist D.N. Logofet's works, aspects such as his coverage of issues of Māori and religious policy in the emirate of Bukhara, the education system in the emirate, have been scientifically analyzed. Also, education in the Bukhara Emirate is mainly aimed at providing religious knowledge, and issues such as secular knowledge and poetry are not taught on a large scale. D.N. Logofet were studied and historically analyzed based on his works.

Keywords: D.N. Logofet, education, educational institution, school, book, Quran, Sharia, Arabic language, mosque, teacher, religious policy, Islam.

Kirish. O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan rus harbiysi, sayyoh, sharqshunos olim D.N. Logofetning asarlari orqali Buxoro amirligidagi maorif va diniy siyosat masalalarining yoritganligi, amirlikdagi ta'lim tizimi kabi jihatlar sayyoh tomonidan berilgan e'tibor tufayli yana yangi yangi ma'lumotlar qayd etilib, yurtimiz tarixining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiga oid bir qadar ilmiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur maqolada D.N. Logofetning “Бухарское ханство подрусским протекторатом. –С.Петербург.-1911. Том II. –408 betlik kitobi asosida, Buxoro amirligidagi maorif va diniy siyosat masalalari yoritilgan.

Muhokama. D.N. Logofet Sharqda ta'lim-tarbiya, ta'lim muassasalari bilan o'z izlanishlarida atroflicha qiziqqan. Buxoro amirligidagi butun o'quv muassasalarini sharqshunos olim 5 kategoriya (toifa)ga bo'ladi.

- 1) maktablar (maktabxona) – savod chiqarishning quyi toifali maktabi;
- 2) daliyalxona – namoz va arab tilini o'rganishning quyi maktabi;
- 3) qorixonalar- “Qur'on” yodlatishga mo'ljallangan quyi toifadagi maxsus maktab;
- 4) madrasalar- “Qur'on” va shariatdan ta'lim beruvchi o'rta maktab;
- 5) madrasalar-“Qur'on” va shariatni o'rgatishga mo'ljallangan oliy maktab.

Buxoro amirligida maorif asosan diniy bilimlar berishga mo'ljallangan bo'lib, dunyoviy bilimlar va she'riyat keng miqyosida o'rgatilmaligi uning tomonidan alohida ta'kidlanadi.

Maktablar masjid qoshida joylashgan bo'lib, ko'p hollarda 1 ta xonadan iborat bo'lgan. Maktabxona masjid binosida yoxud masjid qoshida alohida xonada joylashgan. Maktab xonalarining o'qituvchisi masjid imomi bo'lgan.

Bir qator shaharlarda o'qituvchilar tomonidan o'z uylarida va ijaraga olingan joylarda maktablar ochilib, ta'lim bergani uchun muallim har bir o'quvchidan 10 tanga (1 rubl 50 kop) to'lov puli olgan[1, 3]. Qizlar uchun maktablar markaziy aholi punktlarida bo'lib, qizlar o'qituvchisi “otin”, “otinoyi” deyilgan.

Maktabxonada o'quvchilar o'qish, yozishni o'rgangandan so'ng, arab imlosini yodlab, mexanik tarzda “Qur'on” yodlashga o'tishgan. “Qur'on” ayrim oyatlari yodlanganidan so'ng “Chorkitob”, Xo'ja Hofiz, So'fi Olloyor, Fuzuliy singari fors tilida ijod etgan adiblar kitobi o'qitilgan.

D.N. Logofet maktabxonada o'qish 5 yil davom etganini qayd etgan. Shu o'rinda o'quvchilar hisob (arifmetika)dan bir qadar xabardor bo'lishgan. Maktabxonada o'qiydigan o'quvchilar aksariyat turkiy tilli aholi farzandlari bo'lib, ular uchun arab imlosi va arab tilida o'qish qiyinchilik tug'dirgan. Holbuki, adiblar kitobini fors-tojik tilida o'qishga to'g'ri kelgan. O'qish davomida bunday murakkab holatdan qiynalgan o'quvchilar katta qismi 2-3 yilda maktabni tashlab ketar, ozchilik 5 yillik ta'limni tugallari olardi, xolos.

Maktabxonalarda Qur'on parchalari, kitoblar yetishmasdi. Shu sababli 2-3 o'quvchisiga 1 ta kitob to'g'ri kelgan. O'qituvchi (domulla) 1 rubl 50 kop.dan tashqari o'quvchilardan “payshanbalik puli” Qur'on va Ro'za hayiti munosabati bilan tuhfa, har bir kitob va kursni tugatganda sovg'alar olib turgan. Sovg'alar yaktak, mahsi, oziq-ovqat hamda oila jihozlaridan iborat bo'lgan.

Maktabga bolasini yetaklab kelgan ota o'qituvchiga murojaat qilib: “janob biz o'g'limizni sizga topshiramiz. Uni o'qiting, kerak bo'lsa o'ldiring, hech qanday e'tiroz bildirmaymiz. Uning suyagi bizdan go'shti sizdan!” degan so'zlarni aytgan. Qorixonada bolalar “Qur'on” oyatlarini yod

olish va qiroat qilishni o'rgangan. Ular qatmi-Qur'on, murdalarda Qur'on qiroat qilish orqali nazr-niyoz olishgan. Daliyolxonada muhim xayrot qilishga qaratilgan Qur'on oyatlari o'rgatilgan [1, 6-7].

D.N. Logofet Buxoro amirligidagi shaharlardan o'rta va oliy ma'lumot beradigan o'nlab madrasalarni sanaydi. Amirlikning 24 ta shahrida madrasalar, shuningdek 10 ta aholi markazlarida ham ular mavjudligi sharqshunos tomonidan ko'rsatib o'tilgan. Madrasalar amirlikda hukmronlik qilgan va ayrim shaxslar tomonidan bunyod etilgani, madrsalarda o'qish boshlanishi va tugashi shaxsan amir farmoni bilan amalga oshirilishiga ishora qilingan.

Madrasalarga yer, karvonsaroy, do'kon, hammom, tegirmon kabilar vaqf qilib berilgan. Vaqf mulklaridan kelgan daromad hisobidan madrasalar moddiy ta'minlanar ekan, ularni qozi (sudya), a'lam (o'quv masalalarini nazorat qiluvchi), xo'jalik ishlarini boshqaruvchi mutavalli boshi kabilar boshqargan.

D.N. Logofet madrasalar to'rt burchakli bino bo'lganligi, ularda yagona chiqish yo'li mavjudligi, bino ichida xonaqo-maschit, darsxona (auditoriya), ilmi toliblar uchun hujralar joylashgani haqida batafsil fikr yuritgan. Ayrim madrasalar 2 qavatli bo'lib, birinchi qavatida ilmu toliblarga saboq berilgan, ikkinchi qavatda esa hujralar joylashgan.

Madrasada yashovchi shaxslar qayd etilib, ular

1) Muddaris, 2)imom, 3) namozga tayyorlovchi, 4) mullavachchalar –o'quvchi ilmi toliblar, 5) farrosh, 6) sartarosh kabilardan iborat. Madrasada imom, xatib, qur'onxon ham faoliyat yuritgan.

D.N. Logofet madrasalarda ta'lim 3 yildan 10 yilgacha davom etgan, saboqni o'zlashtirmaganlar 20 yilgacha ta'lim olishda davom etganlar deb ma'lumot keltirgan. Ilmu toliblar madrasada arab tili, shariat kitoblari asosida fiqh (islom huquqi), fors tili va fors adabiyoti, mushkulot (falsafa) kabilardan ta'lim olishgan.

Bundan tashqari arifmetikadan to'rt amal (qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirish) handasa (geometriya), musulmon tarixidan lavhalar, geografiya kosmografiya, astronomiyadan umumiy tushunchalar, tabiat qonunlari va fizika ham o'rgatilgan. Madrasani tugatgan ilmu tolib qozi, mufti, a'lam mansablarini egallashi mumkin edi. Ayrim talabalar madrasada mudarris bo'lib qolgan[1, 8-9].

D.N. Logofet oliy madrasalarni zamonaviy akademiyalarga qiyoslab, 3-4 yil davomida o'rta madrasalarni tugatgan shaxslar diniy va fiqh ilmiy borasida yuqori darajaga erishganlar deydi.

Olimning kitoblarida madrasa xodimlari oladigan daromad va ish haqi miqdoriga qadar ma'lumotlar keltirilgan. Uning yozishicha mutavalli vaqflardan keladigan daromadning 20/1 qismidan 101¹ qismigacha olgan. Mudarrislar rus puli bilan bir yilda 100 rubldan 200 rublgacha, shogirdlar 15 rubldan 35 rublgacha olishgan. Yil davomida o'qu'chilar madrasada o'qitilib, 1 o'quv yili 6 oy bo'lgan. O'qish kunlari shanba, yakshanba, dushanba, seshanba bo'lib, ozod kunlar chorshanba, payshanba, juma kunlari edi.

Olim madrasalarni uch kategoriyaga bo'lib (odno – quyi, aysob-o'rta, a'lo-oliy) ularda o'qitiladigan kitoblari birma-bir sanagan. Shuningdek, madrasadagi har bir hujra to'lovi 10 rubldan 15 rublgacha ekanligi, tahsilni bitirgan talabalar hujralarini ta'mirlab topshirishi kerakligi ham qayd etib o'tilgan. Hujralar nazorati a'lam tomonidan amalga oshirilgan. Hujraga talaba kelmay qo'ysa, yashash qoidalarini buzsa, bundaylar hujradan mahrum qilingan, ilmu toliblar safidan chiqarilgan.

Ma'lumki, Buxoro amirligida islom dinining sunna mahzabiga e'tiqod qilinib, Qur'oni Karim asosida islom mafkurasi ostida davlat boshqarilgan. Biroq, Buxoro amirligida islomning shia mahzabiga kiruvchi aholi, hindlar, yahudiylar, nasroniylar konfessiyasida bo'lganlar ham istiqomat qilgan. D.N. Logofet Buxoro so'ngi amirlari (Muzaffarxon, Abulahadxon, Sayid Olimxon) boshqa diniy konfessiya a'zolariga nisbatan shavqatsiz bo'lmaganligini tasdiqlaydi. Yuqorida qayd etilgan konfessiyalarning vakillari Buxoro amirligida savdo-sotiq, hunarmandchilik mashg'ulotlari bilan shug'ullanishgan. Amirlik iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, amirlar ularning hayotini va yashash sharoitlarini yaratib berish bilan birga, diniy

- 16 marosimlarini o'tkazishlariga monelik qilmagan. Shunga qaramay yahudiylar musulmon aholidan kiyim-kechagi farqli bo'lib, mahalliy kishilarga hurmat ko'rsatishi zarur bo'lgan. Amaldorlarni uchratib qolganda ta'zim qilish, otda bo'lsa otdan tushib qo'l qovushtirib turish va hokazo. Boshqa diniy konfessiya a'zolaridan yahudiylarning senagok (masjit)lari Buxoroi sharifda mavjud bo'lib, diniy marosimlar shu binoda ato etilgan. Hindlarda esa, ular yashagan mahalladagi uylardan bir xona iborat va diniy marosimlarni bajarish uchun ajratilgan. Eroniy (shia)lar amirlikda ko'p sonli bo'lib, ularning ham o'z masjiti bo'lgan.

D.N. Logofet asarlari bilan tanishish asnosida amin bo'lindiki, sharqshunos olim musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'oni Karimni chuqur o'rgangan. Qur'oni Karimning 114 ta surasidan iborat ekanligini ta'kidlar ekan, uning oyatlaridan bir nechtasini keltirib, sharhlab bergan[1, 12-13].

U musulmon davlati boshqaruvida muhim rol o'ynagan qozikalon, qozi, rais, mufti, mudarris, imom, jamul, eshon, a'lam, mulla, mullai-azim, azon aytuvchi, xo'ja, maddohi, darvesh, ulamo kabi 17 tasini sanab o'tadi. Xo'ja alohida mavqei toifani anglatishi bilan birga, bu lavozimdagi kishi Makka va Madinaga haj uyushtiruvchi shaxs ma'nosini ham anglatgan.

Buxoro amirligida masjidlar roli kattaligi, ularda aholi turli talabaqalari jamoa bo'lib, namoz farzini ado etishi, ayniqsa, "juma namozi" Qur'on va Ro'za hayiti bayramlari munosabati bilan bayram namozi o'qilishi muhim taomilga aylangani sharqshunos tomonidan keng tavsif etilgan. Umuman Sharq dunyosida odamlar ikki obyekt bozor va masjit orqali yangiliklardan xabardor bo'lishgan. Masjitda jamoa a'zolariga islom arkonlaridan imom amri-ma'ruf qilish bilan birga, davlat siyosatini ham targ'ib etgan.

D.N. Logofet amirlikdagi darveshxonalar, ulardagi darveshlar haqida yozar ekan, darveshlar o'tmishda ilmiy kishilar bo'lgani, biroq hayotda o'z o'rinlarini topa olmay, darveshxonadan boshpana topganliklarini uqtirib o'tgan. Uning kitoblarida pir va murid, ustoz va shogird an'anasi haqidagi fikrlar ham mavjud.

D.N. Logofet muridlarning sadoqati kuchli ekanligi, shogirdlar yillar davomida o'z ustoziga sadoqat ko'rsatib kelganligini alohida ta'kidlaydi.

U amirlikda mavjud bo'lgan tariqat (orden)lar haqida ma'lumot berib, 1) naqshbandiya, 2) Qodiriya, 3) Xufriya, 4) Qalandariya, 5) Kubroviya, 6) Qodiriya tarmog'i bo'lgan Yazdaxiya kabilarni sanab o'tgan. Buxoroda Naqshbandiya va qalandariya tariqatlari keng tarqalgan. Tariqatlarning shayxlariga maxsus kiyim berilgan bo'lib, ular do'ppi, shundan qilingan kuloh, kamar, xirqa kabilardan iborat bo'lgan. Qalandarlar 5-6 kishi bo'lib bozor, shahar ko'chalari, qishloq mahallalarida Qur'on oyatlarini o'qib, diniy she'rlar aytib yurishgan. Muridlar nazariy va amaliy bilimlarni murshidlar (shayxlar)dan olib, (irshod) doimo jamoa bilan aloqa qilib turganlar.

D.N. Logofet bozorlarda maddohlar (rivoyat, hikoya aytib yuruvchilar) faoliyat yuritib, ular har bir masalani diniy nuqtai nazardan talqin qilishni ko'rsatgan. Maddohlar notiqlik san'atini egallagan bo'lib, odamlar to'dasi orasida "siyosiy sharhlovchi" bo'lishgan. Bozorlarda voiz, hofiz (qo'shiqchi), qissaxonlar ham aylanib yurib o'zining rizq-ro'zini tergan, tirikchiligini o'tkazgan. Tinglovchi va tomoshabinlar oldida focus (sehru jodu) qiluvchilar ham chiqishlar qilib, vakillari orqali tomoshabinlardan tanga to'plagan. Har bir tomoshabin o'z ko'nglidan chiqarib, holiga yarasha tanga tashlagan. Tanga bermagan tomoshabinlarga hech qanday e'tiroz bildirilmagan[1, 24-25].

Natija. Buxoro amirligida Kubraviya va Qodiriya ordeniya kiruvchilar soni unchalik ko'p bo'lmagan, biroq ularning soni XX asr boshlarini yildan yilga oshib borgan.

D.N. Logofet Qodiriya va Kubroviya oqimlarining asoschilari, bu tariqatlar tarqalgan hududlar haqida manbaviy ahamiyatga ega ma'lumotlar keltiradi.

Buxoroi sharifda bu tariqatlarning shayx (pir)lari borligini ham qayd etib o'tishni u unutmagan. Qodiriya aslida Jazoir, Marokash, Turkiyada keng tarqalgani olim tomonidan qayd etilgan.

Uning ta'kidlashicha, eng ta'sirli va mavqeli toifalar bu hojilar, saidlar, xo'jalar, shayxlar hisoblanadi. Shayxlar asosan muqaddas qadamjolar va qabristonlar qoshida yashashgan. Buxoro amirligidagi shia mahzabidagi musulmonlar dastlab forsdan kelib chiqqan qullar bo'lgani, ular

sekin-asta amir amaldorlar ishonchiga kirib yuqori mansab hamda lavozimlar egallagani sharqshunos tomonidan bildirish berib o'tilgan. Sharqshunos Buxoroda ismoiliylar oqimi (sektasi)dagi hazarlar yashashi, ular ular urf-odat, diniy marosimlari o'ziga xosligi ham qayd etilgan[1, 26-27].

Xulosa. D.N. Logofet konservativ xarakterdagi islom ruhoniylari, eshon va mullalar nasroniylikka hamda rus hukumatiga nisbatan dushmanlik kayfiyatida ekanligini ham alohida qayd etgan. Islom dinining ikki oqimi sunna va shia o'rtasidagi o'zaro dushmanlik va ziddiyatlar amirlik ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga salbiy ta'sir o'tkazganligi uning tomonidan to'g'ri ta'kidlangan.

Xullas, Buxoro amirligida maorif va ta'lim islom ma'naviyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, diniy ta'limga asosiy e'tibor qaratilgani rus sharqshunosi fikr-mulohazalaridan o'rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Логофет Д.Н. Бухарское ханство подрусским протекторатом. –С.Петербург.- 1911. Том II. –408 стр.
2. Hayitov, S. (2023). XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi turkmanlar etnografiyasiga oid ayrim ma'lumotlar sharqshunos D.N Logofet talqinida. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 43(43).
3. Asror o'g'li, A. A. (2024). Prince of Afghanistan Isak Khan orientalist dn in the interpretation of Logophet. *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science*, 2(5), 82-85.
4. Хайитов, Ш., & Ахмадов, А. (2022). Бухоро амрлигида рус-тузем мактабининг очилиши ва фаолияти тарихидан (архив хужжатлари асосида). *Journal of Integrated Education and Research*, 1(3), 8-13.
5. Hayitov S. XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDAGI TURKMANLAR ETNOGRAFIYASIGA OID AYRIM MA'LUMOTLAR SHARQSHUNOS DN LOGOFET TALQINIDA //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 43. – №. 43.
6. Asror o'g'li A. A. PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET //Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 82-85.